

TELEKOMMUNIKATSIYA TARMOG‘IDA MAVJUD BO‘LGAN XAVFSIZLIK MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISHNI TADQIQ ETISH

Shukurova Saboxat Muratdjanovna

Toshkent davlat transport universiteti,
“Aeronavigatsiya tizimlari” kafedrasini mudiri,
PhD, dotsent,

Mirzaeva Malika Bahadirovna

(Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Telekommunikatsiya sohasida apparat va dasturiy ta’minotni boshqarish tizimlari
kafedrasini dotsenti, PhD)

Muxamedaminov Aziz Odiljon o‘g‘li

(“UNICON.UZ” DUK Standartlashtirish
Tayanch Tashkiloti muhandisi)

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda telekommunikatsiya sohasidagi axborot xavfsizligi – ko‘p qirrali faoliyat sohasi bo‘lib, unga faqat tizimli, kompleks yondashuv muvaffaqiyat keltirishi mumkin. Ushbu muammoni hal etish uchun huquqiy, ma’muriy, protsedurali va dasturiy texnik choralar qo‘llaniladi. Davlatning axborot xavfsizligini ta’minlash muammosi milliy xavfsizlikni ta’minlashning asosiy va ajralmas qismi bo‘lib, axborotni muhofaza qilish esa davlatning birlamchi masalalariga, davlat siyosati darajasiga aylanmoqda. Demak, axborot xavfsizligi bilan bog‘liq muammolarni hal etish mazkur ishning naqadar dolzarbligini anglatadi. Maqolada axborot tushunchasi, axborotlarning turlari, axborot xavfsizligiga tahdid va ularning turlari, axborot xavfsizligining ahamiyati kabi tushunchalar bayon etilgan. Axborot xavfsizligiga tahdidlar zamonaviy asoslar asosida talqin etilgan.

Kalit so‘zlar: axborot, axborot xavfsizligi, axborot xavfsizligi turlari, axborotlarning turlari, xavfsizlik turlari, axborotni muhofazasi, ma’lumotlar bazasi.

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyoti telekommunikatsiya va axborot texnologiyalari sohasida isloxtar tufayli bir qancha ahamiyatli ijobiy o‘zgarishlarga ega bo‘lib, bu soxa eng tezkor rivojlanayotgan uzoq muddatli iqtisodiy o‘shish potensialiga ega

bo'lgan soxaga aylandi va zamonaviy axborot texnologiyalarini mamlakatimiz xayotiga kiritish, ijtimoiy ishlab chiqish va rivojlanish samaradorligini oshirish vazifalarini echishga yo'naltirilgan Respublika xukumati faoliyatining ustuvor vazifalaridan biridir. Shu tufayli har xil axborot kommunikatsiya texnologiyalarining tez rivojlanishi va o'zaro birgalikda ishlashi natijasida ularning yaqinlashishi kuzatilmoqda. Bu jarayon hayotimizga telekommunikatsiya tarmoqlarida texnologiyalar konvergentsiyasi tushunchasi bilan kirib kelmoqda. Chunki bugungi kunda global kompyuter tarmog'i ko'plab birlashgan korporativ va lokal tarmoqlarni tashkil qiladi. Shunga qaramasdan oxirgi paytda axborotlarni uzatish xajmining oshishi, mavjud bo'lgan axborotli kanallarning uzatuvchanlik qobiliyatini etishmasligiga olib kelmoqda³¹.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida "Barchamizga ayonki, jahonda keskin iqtisodiy raqobat, axborot xurujlari, terroristik tahdidlar tobora kuchayib bormoqda. Dunyoning turli joylarida, ayniqsa, Yaqin Sharq mintaqasida qonli to'qnashuv va nizolar davom etmoqda. Ming afsuski, bunday notinch keskinlik o'choqlari kamayish o'rniga ko'payib bormoqda. Shu boisdan axborot resurslari orqali tarqatilayotgan buzg'unchi g'oyalarning oldini olish maqsadida huquqni muhofaza qilish organlari tarkibida alohida bo'linmalar tashkil etish zarur..."³² kabi vazifalarni ilgari surdilar

XXI asr kishilik jamiyatining taraqqiyoti inson faoliyatining turli jabhalarida bevosita axborot ishlab chiqarish, uni iste'mol qilish va jamlash sur'atlarining o'sishi bilan bevosita bog'liq. Sababi, axborot kishilik jamiyatining muhim resurslaridan hisoblanadi. Ijtimoiy taraqqiyotda axborot strategik muhim ahamiyatga ega bo'lgan hom-ashyo va energiya bilan tenglashtirilmoqda. Ma'lumki, dunyo miqyosida milliy mahsulotning 70 %ni axborot tizimlarida saqlanayotgan axborot ko'lami bilan bog'liqdir. Nafaqat qimmatli axborotlar xavfsizligini ta'minlash, balki axborot tizimlari va ularning infrastrukturasi xavfsizligini ta'minlash ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.³³

Telekommunikatsiya tarmog'ini rivojlantirish to'g'risidagi qarorga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi telekommunikatsiya tarmog'ini bosqichma-bosqich rekonstruksiya qilish va rivojlantirish vazifalari belgilandi va bu vazifalar amalga oshirilmoqda. Telekommunikatsiya tarmog'i deyilganda hududiy turli olis masofada joylashgan foydalanuvchilarga axborot yetkazilishini ta'minlovchi elektr aloqa

³¹ R.N. Radjapova "KEYINGI AVLODNING KONVERGENT TARMOQLAR" O'quv qo'llanma Toshkent 2017

³² <http://www.ach.gov.uz/uz/lists/view/54>

³³ Sardon Doniyor o'g'li Sultonmurodov "Globallashuv jarayonida axborot xavfsizliga tahdid va uning namoyon bo'lish" SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 8 | 2021 ISSN: 2181-1601 740-b

vositalarining, shuningdek, uzatishga mo'ljallangan va qabul qilingan axborotni saqlash va qayta ishlash vositalarining jamlanmalari tushuniladi.³⁴

Insonning butun hayoti axborotni qabul qilish, saqlash va qayta ishlash bilan bog'langan. Umuman olganda, inson bilimi ham to'plangan va tartiblangan axborotdir. Ammo inson miyasi nechog'li mukammal bo'lmasin, juda katta miqdordagi axborotning hammasini xotirasida saqlay olmaydi va avloddan-avlodga hech bir o'zgarishsiz uzatib bermaydi. Shu tariqa axborotlarni saqlab, eslab turadigan texnik vositalarga zaruriyat tug'ildi. Bundan tashqari, axborot har bir millatning boyligi hisoblanadi, shu sababli uni shunday saqlash lozimki, undan kerakli vaqtda kerakli hajmda foydalanish mumkin bo'lsin. Shundagina uning bahosi beqiyos bo'ladi. Aynan shuning uchun kompyuterlar bugungi kun talabiga javob beradigan texnik vositalari va qurilmalaridan samarali foydalanishga harakat qiladi.

Prezidentimiz va hukumatimizning diqqat markazidagi masalalar qatoriga ta'lim jarayonini axborotlashtirish masalasi ham kirib, ushbu masalani hal etish bo'yicha qator qonunlar va qarorlar qabul qilindi. Bu qonun va qarorlarning asosini o'quv jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar hamda multimediyaga vositalarini keng joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yaxshi biladigan va o'z kasbiy faoliyatida ulardan samarali foydalanadigan yuqori malakali, axboriy madaniyatga ega mutaxassislarni tayyorlash tashkil etadi.

Axborotni muhofaza qilishning davlat tizimi axborotni himoyalovchi texnikani qo'llaydigan idoralar va ijro etuvchilar hamda himoya obyektlari majmuini ifodalaydi. Bu tizim axborotni muhofaza qilish sohasidagi huquqiy, tashkiliy boshqaruv va me'yoriy hujjatlarga muvofiq tashkil etiladi va faoliyat yuritadi. Shu bilan birga mamlakat milliy xavfsizligini ta'minlash tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi va davlat xavfsizligini axborot sohasidagi ichki va tashqi tahdidlardan himoyalashga yo'naltirilgan.

XXI asrda shaxs, jamiyat va davlat taraqqiyotida axborot resurslari va texnologiyalarining rolini ortishi natijasida O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatini axborotlashtirilgan jamiyat sifatida qurish masalasini hal etish bilan birga quyidagi omillar milliy xavfsizlikni ta'minlash tizimida axborot xavfsizligining yetakchi o'rin egallashini belgilaydi:³⁵

– milliy manfaatlar, ularga tajovuz va ularni bu tajovuzlardan himoyalash axborot va axborot sohasi orqali ifodalanadi, amalga oshiriladi;

³⁴ A.V. SHIN, N. XODJAYEV "Telekommunikatsiya uzatish tizimlari o'quv qo'llanma Toshkent — «ILM ZIYO» -2016

³⁵ Rasulmuxamedov Muxamadaziz Maxamadaminovich, "Axborot xavfsizligini ta'minlash uchun dastur ishlab chiqish" "Uchinchi renessans: ilm-fan va ta'lim taraqqiyoti istiqbollari" ISSN 2181-1784 2021 December www.oriens.uz 71-b

– inson va uning huquqlari, axborot va axborot tizimlari hamda ularga egalik qilish – bu nafaqat axborot xavfsizligining asosiy ob’ektlari, shu bilan birga jami xavfsizlik sohalaridagi xavfsizlik ob’ektlarining asosiy elementlaridir;

– axborot yondashuvidan asosiy ilmiy-amaliy usul sifatida foydalanish orqali milliy xavfsizlik masalalarini hal etish mumkin;

– milliy xavfsizlik muammosi yaqqol ajralib turuvchi axborot tavsifiga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Axborot xavfsizligi elementlari qadimgi davrlardan beri qo‘llanilib kelinmoqda: ma’lumki, qadimgi Misr va Qadimgi Rimda kriptografiya qo‘llanilgan. Gerodotning so‘zlariga ko‘ra, allaqachon, Miloddan avvalgi V asrda, axborot kodlash ishlatilgan³⁶. Kriptografiyaning dastlabki dasturlaridan biriga klassik misol "Qaysar shifr" deb nomlangan S.Otamurtovning "Globallashuv va milliy-ma'naviy havfsizlik"³⁷, Sh.Umarov va F.Mulaydinovlarning "Axborot xavfsizligi"³⁸, M.Quronovning "Milliy tarbiya", M.Lafasovning "Diniy ekstremizm: tarixi va mohiyati", X.Jumaniyozov, M.Sobirovlarning "Globallashuv asoslari", I.Karimov va N.Turgunovlarning "Axborot xavfsizligi asoslari" asarlarida yoritib berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Bugungi kunda har qanday taraqqiy etgan jamiyat hayotida axborotning ahamiyati uzluksiz ortib bormoqda. Uzoq o‘tmishdan davlatning harbiy-strategik ahamiyatiga molik bo‘lgan ma’lumotlar qat’iy sir tutilgan va himoyalangan. Hozirgi vaqtda ishlab chiqarish texnologiyalariga va mahsulotlarni sotishga tegishli axborot tovar ko‘rinishiga ega bo‘lib, ichki va tashqi bozorda unga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Axborot texnologiyalari avtomatlashtirish va axborotni muhofaza qilish yo‘nalishlarida muntazam mukammallashib bormoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarining taraqqiyoti sanoat shpionaji, kompyuter jinoyatchiligi, konfedensial ma’lumotlarga ruxsatsiz kirish, o‘zgartirish, yo‘qotish kabi salbiy hodisalar bilan birgalikda kuzatilmoqda. Shuning uchun axborotni muhofaza qilish har qanday mamlakatda muhim davlat vazifasi hisoblanadi. O‘zbekistonda axborotni muhofaza qilishning zaruriyati axborotni muhofaza qilishning davlat tizimi yaratilishida va axborot xavfsizligining huquqiy bazasini rivojlantirishda o‘z ifodasini topmoqda. "Axborotlashtirish to‘g‘risida", "Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida", "Elektron hisoblash mashinalari dasturlari va ma’lumotlar bazalarini huquqiy himoya qilish to‘g‘risida" va boshqa qonunlar hamda bir qator hukumat qarorlari qabul qilindi va amalga tatbiq etildi. Axborotni qanday yo‘qotish mumkinligini va bu qanday

³⁶ R.H.KUSHATOV "Axborot xavfsizligi va intellektual mulkka kirishni boshqarish O‘quv qo‘llanma Samarqand – 2021 6-b


³⁷ Otamuratov S. Globallashuv va milliy-ma'naviy havfsizlik. -T: 2013

³⁸ Jumaniyozov X, Sobirova M, Nigmanova U. Globallashuv asoslari. -T: 2015.

oqibatlariga olib kelishini barcha ham tushunavermaydi. Misol uchun xakerlar Yahoo.com, Amazon.com kabi kompaniyalarga va hatto kosmik tadqiqot agentligi NASAga katta zarar yetkazdilar. Xavfsizlik xizmati bozorining eng yirik nomoyondalaridan biri RSA Security, har qanday taxdidga qarshi chora borligi xususidagi o'ylamasdan qilgan bayonotidan bir necha kundan keyin, xujumga duchor bo'ldi.

Taqsimlanganning xavfsiz ulanishini tashkil qilish algoritmini ishlab chiqish Internetga korporativ tarmoq Algoritmi ishlab chiqish uchun odatiy tashkiliy tuzilmani taqdim etish kerak. Kichik yoki o'rta biznesga asoslangan markaziy ofis va bir nechta uzoqda joylashgan va ular uchun almashinuv talab qilinadi. Byudjet cheklovlari tufayli provayder tomonidan ajratilgan kanallar mazmuni mumkin emas, shuning uchun almashish ma'lumotlar Internetning ochiq kanallari orqali taqdim etiladi.

Quyidagi komponentlarni o'z ichiga olgan arxitekturani ishlab chiqish talab etiladi: struktura ma'lumot almashish imkoniyatiga ega bo'lgan asosiy va masofaviy ofislar o'zaro har qanday tarmoqlar uchun xos bo'lgan xavfsiz tarmoq infratuzilmasini tashkil etish miqyosi va axborot xavfsizligiga asosiy tahdidlardan himoya qilishni ta'minlash; moslashuvchan tarmoq sozlamalari opsiyalari mavjud. 1-rasmda ko'rsatilgan.



1-rasm.

Hozirda, xujumlar sonining doimo o'sishi hamda biznesning axborotdan foydalanish va almashishning elektron vositalariga bog'liqligi sharoitida mashina vaqtining yo'qolishiga olib keluvchi hatto ozgina xujumdan kelgan zarar juda katta raqamlar orqali hisoblanadi. Misol tariqasida keltirish mumkinki, faqat 2003- yilning birinchi choragida dunyo miqyosidagi yo'qotishlar 2002-yildagi barcha yo'qotishlar yig'indisining 50 %ini tashkil etgan, yoki bo'lmasa 2006-yilning o'zida Rossiya

Federeatsiyasida 14 mingdan ortiq kompyuter jinoyatchiligi holatlari qayd etilgan³⁹. Bu statistik ma'lumotlarning o'zi mavzuning dolzarb ekanligiga yana bir dalildir.

Telekommunikatsiya tarmog'ini rivojlantirish maqsadida qo'shimcha 50 ming kilometr optik-tolali aloqa liniyalari qurilib, ularning umumiy uzunligi 118 ming kilometr yetkazildi, va buning natijasida aholi maskanlarining 67 foiziga mazkur tarmoq kirib bordi. Optik tarmoqni kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar kelgusi yillarda ham shu sur'atda davom ettirilishi belgilangan.

Aholiga yuqori tezlikdagi internet xizmatlarini ko'rsatish qurilmalarining umumiy sig'imi 3,6 mln.ga yetkazildi.

Mobil aloqa xizmatlarini rivojlantirish maqsadida, mobil internet tezligi 1,5 barobar oshirildi va 2021-yilda 14 150 ta qo'shimcha tayanch stansiyalari o'rnatilib, ularning umumiy soni 45 890 taga yetkazildi.

Operator va provayderlarga Internet xizmatlari uchun tarif o'tgan yilning shu davriga nisbatan 42,9 foizga arzonlashtirilib, 1 Mbit/s uchun 30,0 ming so'mni tashkil etmoqda.

Bugungi kunga kelib 95 foiz aholi maskanlari mobil internet bilan qamrab olingan, 54 foiz uy xo'jaliklariga yuqori tezlikdagi internetga ulanish imkoni yaratilgan.

2020-yil axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasi uchun, shubhasiz, sermahsul bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. O'tgan yilda telekommunikatsiya infratuzilmani rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar va qator yirik loyihalar amalga oshirildi.

Optik tolali aloqa liniyalarini qurish loyihasini amalga oshirish bo'yicha qator ishlar olib borilmoqda. 2018-yilda optik tolali tarmoqlarning umumiy uzunligi 26,6 ming kilometrni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda esa 68,6 ming kilometrgacha yetkazildi. Joriy yil oxiriga qadar esa ushbu ko'rsatqichni 118,6 ming kilometrgacha yetkazilishi rejalashtirilgan.

Bugungi kunda 1 millionta Internet tarmog'iga keng polosali ulanish portlari o'rnatilib, ularning umumiy soni 3 millionga yetkazildi. 2021-yil oxiriga qadar portlarning soni 3,9 milliongacha yetkaziladi⁴⁰.

Axborot – manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'iy nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar yig'indisidir. Endi ushbu qoidadan kelib chiqqan holda axborotning turlar haqida so'z yuritsag.

³⁹ Umarov Sh, Mulyadinov F. Axborot xavfsizligi.- Farg'ona: 2014.

⁴⁰ Juraqulov Ziyodullo Saidqul o'g'li "TELEKOMMUNIKATSIYA TARMOQLARI TRAFIKLARI HIMOYASI USULLARI" ISSN: 2181-3337 SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 № 2 103-b

O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda № 439-II-sonli “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunida axborot va uning turlari to‘g‘risida quyidagi ta‘riflar keltirilgan:

Ommaviy axborot – cheklanmagan doiradagi shaxslar uchun mo‘ljallangan hujjatlashtirilgan axborot, bosma, audio, audiovizual hamdan boshqa xabarlar va materiallar;

Hujjatlashtirilgan axborot – identifikatsiya qilish imkonini beruvchi rekvizitlari qo‘yilgan holda moddiy jismda qayd etilgan axborot;

Maxfiy axborot – foydalanilishi qonun hujjatlariga muvofiq cheklab qo‘yiladigan hujjatlashtirilgan axborot. Ushbu ta‘rif O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy axborot resurslarini muhofaza qilishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida 2011- yil 8-iyuldagi PQ–1572-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 2011-yil 7-noyabr 296-sonli qarorida quyidagicha ifodalangan: maxfiy axborot – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq foydalanish cheklangan, davlat sirlariga mansub axborot mavjud bo‘lmagan hujjatlashtirilgan axborot⁴¹.

Quyida axborot xavfsizligining asosiy tashkil etuvchilari va jihatlari keltirilgan:

✓ axborotni muhofaza qilish (shaxsiy ma‘lumotlarni, davlat va xizmat sirlarini va boshqa turdagi tarqatilishi chegaralangan ma‘lumotlarni qo‘riqlash ma‘nosida);

✓ kompyuter xavfsizligi yoki ma‘lumotlar xavfsizligi

✓ kompyuter tarmoqlarida ma‘lumotlarning saqlanishini, foydalanishga ruxsat etilganligini va konfidentsialligini ta‘minlovchi apparat va dasturiy vositalar to‘plami, axborotdan mualliflashtirilmagan foydalanishdan himoya qilish choralari;

✓ axborot egalari yoki axborotdan foydalanuvchilarga hamda uni qo‘llab quvvatlovchi infratuzilmaga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan tabiiy yoki sun‘iy xarakterdagi tasodifiy yoki qasddan ta‘sir etishlardan axborot va uni qo‘llab quvvatlovchi infratuzilmaning himoyalanganligi;

✓ fuqarolar, alohida guruhlar va ijtimoiy qatlamlar, umuman olganda aholining yashash faoliyati, ta‘lim olish va rivojlanishlari uchun zarur bo‘lgan sifatli axborotga bo‘lgan talablarining himoyalanganligi.

Konfidential axborot – hujjatlashtirilgan axborot, undan foydalanish qonun hujjatlariga muvofiq chegaralanadi.⁴²

Axborot bu – biror voqea haqidagi batafsil xabar, ma‘lumot. Axborot resurslari – bu tashkilot miqyosida axborotni muhofaza qilish bo‘yicha optimal boshqaruv yechimlari qabul qilinadigan axborot. Unga quyidagilar kiradi:

⁴¹ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T.: 2011. – № 45- 46. – 472-m

⁴² Aloqa va axborotlashtirish sohasida axborot xavfsizligi: Atamalar va ta‘riflar. Tarmoq standarti: TSt 45- 010: 2010

- huquqiy axborot (xavfsizlik muammolari bo'yicha me'yoriy baza);
- tijorat axborotlari (ishlab chiqariladigan mahsulot va unda axborotni muhofaza qilish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar haqida axborot);
- ilmiy-texnik axborot (xavfsizlik bo'yicha mamlakat va chet el ishlab chiqarish texnologiyasi jarayonlari bo'yicha axborot);
- tashkilotning axborot xavfsizligi holati, unga tahdidlar bo'yicha axborot-tahliliy faoliyat natijasida olingan tahliliy axborot.

Gap xavfsizlik masalasida borar ekan avvalo uning yo'nalishlari bilan tanishib chiqaylik

Xavfsizlikning asosiy yo'nalishlari:

- axborot xavfsizligi;
- iqtisodiy xavfsizlik;
- mudofaa xavfsizlik;
- axborot xavfsizligi;
- iqtisodiy xavfsizlik;
- mudofaa xavfsizlik;

Axborot xavfsizligi deganda tabiiy yoki sun'iy xarakterdagi tasodifiy yoki qasddan qilingan ta'sirlardan axborot va uni qo'llab-quvvatlab turuvchi infrastukturaning himoyalanganligi tushuniladi.

Umumiy yo'nalishga ko'ra axborot xavfsizligiga tahdidlar quyidagilarga bo'linadi:

Birinchisi, O'zbekistonning ma'naviy ravnaqi sohalarida, ma'naviy hayot va axborot faoliyatida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga tahdidlar;

Ikkinchisi, mamlakatning axborotlashtirish, telekommunikatsiya va aloqa vositalari industriyasini rivojlanishiga, ichki bozor talablarini qondirishga, uning mahsulotlarini jahon bozoriga chiqishiga, shuningdek mahalliy axborot resurslarini yig'ish, saqlash va samarali foydalanishni ta'minlashga nisbatan tahdidlar;

Uchinchisi, respublika hududida joriy etilgan hamda yaratilayotgan axborot va telekommunikatsiya tizimlarining me'yorida ishlashiga, axborot resurslari xavfsizligiga tahdidlar.

Axborot xavfsizligiga tahdidlar darajasiga ko'ra quyidagicha toifalanishi mumkin:

a) shaxs uchun:

- axborotlarni qidirish, olish, uzatish, ishlab chiqish va tarqatish bo'yicha fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini buzilishi;
- fuqarolarni shaxsiy hayot daxlsizligi huquqidan mahrum qilish;

- g‘ayriixtiyoriy zararli axborotlardan fuqarolarning o‘z sog‘liqlarini himoya qilish huquqlari buzilishi;
- intellektual mulk obyektlariga tahdid.
- b) jamiyat uchun:
 - axborotlashtirilgan jamiyatni qurishga to‘siqlar;
 - jamiyatning ma‘naviy yangilanish, uning ma‘naviy boyliklarini saqlash, fidoyilik va xolislik, mamlakatning ko‘p asrlik ma‘naviy an‘analarini rivojlantirish, milliy, madaniy merosni targ‘ib qilish, axloq me‘yorlari huquqlaridan mahrum qilish;
 - zamonaviy telekommunikatsiya texnologiyalarini taraqqiy etishi, mamlakat ilmiy va ishlab chiqarish potensialini rivojlantirish va saqlab qolishga qarshilik qiluvchi muhitni yaratish.
- v) davlat uchun:
 - shaxs va jamiyat manfaatlarini himoyasiga qarshi harakatlar;
 - huquqiy davlat qurishga qarshilik;
 - davlat boshqaruv organlari ustidan jamoat nazorati institutlarini shakllantirishga qarshi harakatlar;
 - shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini ta‘minlovchi davlat boshqaruv organlari tomonidan qarorlarni tayyorlash, qabul qilish va tatbiq etish tizimini shakllantirishga qarshilik;
 - davlat axborot tizimlari va davlat axborot resurslari himoyasiga to‘siqlar;
 - mamlakat yagona axborot muhiti himoyasiga qarshi harakatlar.

NATIJAR VA MUHOKAMALAR

Hozirgi kunda telekommunikatsiya sohasidagi axborot xavfsizligi dolzarb masalalardan biri hisoblanib, axborot va uning turlari, axborot xavfsizligi, milliy xavfsizlikning yo‘nalishlari, davlatimizning axborot sohasidagi xavfsizlik masalalari to‘laqonli yoritib berildi. Va yana shuni aytib o‘tish mumkinki bu yerda axborotning ahamiyati, uning jamiyatda va kundalik hayotimizda tutgan o‘rni, axborot xavfsizligi, axborot xavfsizligiga tahdid va uning turlari, bugungi kunda axborot xavfsizligining dolzarb ahamiyat kasb etishi masalalar yoritilgan.

XULOSA

Hozirgi davrga kelib hayotimizni telekommunikatsiya va mobile loqa vositalari va ulardagi global axborot texnologiyasi, kompyutersiz tasavvur qilish mumkin emas. Shuning uchun tamomila tabiiy holda axborotni unga ruxsat etilmagan holda kirishdan, qasddan o‘zgartirishdan, uni o‘g‘irlashdan, yo‘qotishdan va boshqa jinoiy xarakterlardan himoya qilishga kuchli zarurat tug‘iladi. Kompyuter tizimlari va tarmoqlarida axborotni ximoya ostiga olish deganda, berilayotgan, saqlanayotgan va

qayta ishlanilayotgan axborotni ishonchliligini tizimli tarzda ta'minlash maqsadida turli vosita va usullarni qo'llash, choralarni ko'rish va tadbirlarni amalga oshirishni tushunish qabul qilingan. Davlatning axborot xavfsizligini ta'minlash muammosi milliy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy va ajralmas qismi bo'lib, axborot himoyasi esa davlatning birlamchi masalalaridan biri bo'lib bormoqda.

Xavfsizlik siyosati – xavfsizlik ob'ektlari va sub'ektlarining berilgan ko'pligining xavfsizligini ta'minlash protseduralari va mexanizmlarini belgilovchi qoidalar to'plami. Tizim xavfsizligini ta'minlashning aniq mexanizmlarini tanlash qabul qilingan xavfsizlik siyosatiga muvofiq amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida”gi Qonunining 4-moddasi.
2. R.N. Radjapova “KEYINGI AVLODNING KONVERGENT TARMOQLAR” O'quv qo'llanma Toshkent 2017
3. A.V. SHIN, N. XODJAYEV “Telekommunikatsiya uzatish tizimlari o'quv qo'llanma Toshkent — «ILM ZIYO» -2016
4. Otamuratov S. Globallashuv va milliy-ma'naviy havfsizlik. -T: 2013.
5. Jumaniyozov X, Sobirova M, Nigmanova U. Globallashuv asoslari. -T: 2015.
6. S. K. G'aniyev, M. M. Karimov, K. A. Tashev. Axborot-kommunikatsion tizimlar xavfsizligi. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Axborot xavfsizligidan o'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent 2010 yil.
7. Umarov Sh, Mulaydinov F. Axborot xavfsizligi. -Farg'ona: 2014.
8. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. -T.: 2011. - № 45- 46. – 472-m.
9. Aloqa va axborotlashtirish sohasida axborot xavfsizligi: atamalar va ta'riflar. Tarmoq standarti: -TSt 45-010.: 2010.
10. Sardor Doniyor o'g'li Sultonmurodov “Globallashuv jarayonida axborot xavfsizligiga tahdid va uning namoyon bo'lish” SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 8 | 2021 ISSN: 2181-1601 740-b
11. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. -T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 2000.
12. www.google.uz
13. www.gov.uz.